Zamonaviy baholash texnologiyalarining o'quvchilar motivatsiyasiga ta'siri ..............................................551
Norova Nilufar Norbo'ta qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishning elektron metodikasi..........................................................................................555
Olimov Bahriddin Jalol o'g'li

Tanqidiy fikrlash va 4K kompetensiyalarining pedagogik-psixologik mohiyati..........................................560
Qizlarxon Azizova

Ona tilida so'z turkumlari va ularni ajratish tamoyillari.............................................................................565
Shadmankulova Dilyarom Xalikovna

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish.......................................................................569
Shodiyeva Dilnoza Qodirovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishni o'rganish – pedagogik muammo sifatida.........................................................................572
Toshpo'latova O'g'iloy Abdurahmon qizi

Inklyuziv ta'limda o'qituvchilarning roli va tayyorgarligi.............................................................................576
Xasanova Iroda Ikromjon qizi

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kompozitsiyaga oid kompetensiyalarini rivojlanirish.......................580
Xasanova Munisa Ziyodillo qizi

Влияние природы, количества, дисперсности и технологии введения наполнителя на свойства композиционных материалов ...........................................................................584
Алимбаев Айбек Байрамович

STEM ta'limi va sun'iy intellekt: Qoraqalpog'iston maktablari uchun integratsiya hamda amaliy bo'lim ......586
Jumamuratov Perdebay Tileubayevich

Интерактивный метод как средство активизации всех учащихся на уроках родного языка ...............589
Тажбенова Дина Куанышовна

Эффективность цифровых технологий в системе образования Узбекистана....................................591
Усмонова Фируза Муродовна

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ...595
Yo'ldosheva Mohidil Sobirjon qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyasini innovatsion yondashuv asosida rivojlantirishning pedagogik zarurati .........................................................599
Qurbonova Muxayyo Oltiboyevna

Mahmudxo'ja Behbudiy merosi, jadid maktablarining g'oyaviy asoslari va ta'limdagi modernizatsiya yo'nalishlari ...........................................................................602
Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Abdisamatov Ozodbek

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini takomillashtirish metodlari.........................................605
Nishonova Ra'noxon Abdullojon qizi

Borrowed Proper Nouns in English and Uzbek: a Comparative Analysis...................................................608
Amirqulova Feruza Abdurashidovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ingliz tilini o'qitishda autentik videolarning amaliy samaradorligi ....613
Dusmurodova Iroda Quvonovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari samaradorligini ta'minlashda direktor va pedagog xodimlarning hamkorlikdagi faoliyati ....616
Olimjonova Odina Hasanxon qizi

Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilish muammolari va ularni hal qilish yo'llari ....620
Dilafruz Norboyeva

"Kommunikativ kompetensiya" tushunchasining xorijiy va milliy manbalarda talqini: qiyosiy tahlil ....624
G'ulomova Begoyim Elmurod qizi

Ijtimoiy tarmoqlardagi jinsiy jinoyatlarning psixolingvistik tomonlari ....627
Rahimqulova Lobar Hamro qizi

К вопросу обучения местоимению в корейском языке ....631
Мухиддинова Малика Батировна

The Importance and its Development Models of Critical Thinking ....634
Khasanova Shokhista Mirzaakhmad kizi

# ONA VA BOLA O'RTASIDAGI PSIXOLOGIK MUNOSABATLAR TIZIMIDA NEVROTIK HOLATLARNING SHAKLLANISHI

Bekmirov Tolib Rashidovich
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Abstract:** Ushbu maqolada onalarda kuzatiladigan nevrotik holatlarning shakllanishi va ularning bola psixik rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda 334 nafar ona va ularning farzandlari ishtirok etgan bo'lib, psixodiagnostik metodlar yordamida depressiya, xavotir, agressiya hamda ota-ona–bola munosabatlari o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, onalardagi nevrotik holatlar bolaning yosh inqirozlarini kechirishida sezilarli ahamiyat kasb etadi va psixoprofilaktika hamda psixokorreksiya zarurligini tasdiqlaydi.

**Key words:** ona, bola, nevroz, psixik rivojlanish, xavotir, nevrotik holat.

**Annotatsiya:** This article analyzes the formation of neurotic states in mothers and their impact on the psychological development of children. The study involved 334 mothers and their children. Using a set of psychodiagnostic methods, depression, anxiety, aggressiveness, and parent–child relationships were examined. The results indicate that neurotic states in mothers significantly affect the child's experience of age crises and confirm the necessity of psychoprophylactic and psychocorrectional interventions.

**Kalit so'zlar:** mother, child, neurotic state, psychological development.

**Аннотация:** В статье анализируется формирование невротических состояний у матерей и их влияние на психическое развитие детей. В исследовании приняли участие 334 матери и их дети. С помощью комплекса психодиагностических методик были изучены депрессия, тревожность, агрессивность и особенности детско-родительских отношений. Результаты показали, что невротические проявления у матерей существенно влияют на прохождение ребёнком возрастных кризисов и подчёркивают необходимость психопрофилактической и психокоррекционной работы.

**Ключевые слова:** мать, ребёнок, невротическое состояние, психическое развитие.

## KIRISH

XXI asrda jamiyat taraqqiyoti va inson hayotining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan shaxsning psixik sog'lomligi, oila munosabatlarining mustahkamligi va ijtimoiy muhitning barqarorligiga bog'liq hisoblanadi. Bu jarayonda, ayniqsa, ayolning – ona shaxsining psixoemotsional holati muhim ahamiyatga ega. Chunki ona nafaqat biologik hayot manbai, balki farzandning birinchi psixologik muhiti, shaxsiy rivojlanishining asosiy omili sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda ko'plab tadqiqotchilar (Z. Freyd, E. Erikson, D. Vinnikott, L. S. Vigotskiy va boshqalar) farzand rivojlanishida ona shaxsining o'rni beqiyos ekanini ta'kidlab o'tganlar. Xususan, nevrotik holatlar, depressiya va xavotir darajasining yuqori bo'lishi onaning bola bilan munosabatlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning yoshga doir inqiroz davrlarini og'irroq kechishiga olib kelishi mumkinligi ko'rsatilgan.

O'zbekistonda oila mustahkamligi, ayollar salomatligi va bola rivojlanishi masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoev tomonidan qabul qilingan qator qaror va farmonlarda ona va bola salomatligini muhofaza qilish, ularning ruhiy va jismoniy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilanmoqda. Bu esa tadqiqot mavzusining nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham egaligini ko'rsatadi. Bola rivojlanishi jarayonida eng muhim bosqichlardan biri – yosh inqirozlaridir. Psixologiyada bolaning 1 yoshli, 3 yoshli, 7 yoshli va o'spirinlik davridagi inqirozlar alohida o'rganiladi. Mazkur bosqichlarda bola mustaqillikka intiladi, o'z shaxsiy pozitsiyasini belgilaydi, yangicha ko'nikmalarni o'zlashtiradi. Ammo agar onada ruhiy beqarorlik, nevrotik holatlar yoki xavotir darajasi yuqori bo'lsa, bolaning ushbu inqirozlardan to'g'ri va yengil o'tishi qiyinlashadi. Shu bois mazkur muammo ilmiy izlanishlarda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Boshqa tomondan, onalardagi nevrotik holatlarni chuqur oʻrganish nafaqat psixologiya, balki tibbiyot, sotsiologiya, pedagogika va sogʻlom turmush tarzi kabi sohalar bilan chambarchas bogʻliq. Chunki bu holat nafaqat bir shaxsga, balki butun oila muhitiga, uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga taʼsir koʻrsatadi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti maʼlumotlariga koʻra, ayollardagi depressiya va xavotir holatlari dunyo aholisi oʻrtasida keng tarqalgan muammolardan biri boʻlib, ularning 30–40 foizida qayd etiladi. Bu koʻrsatkich oilalardagi munosabatlar va bolalar rivojlanishi bilan uzviy bogʻliq.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

- Ona salomatligi va bola rivojlanishi oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni ilmiy asosda yoritish zarurati.
- Nevrotik holatlar va ularning ona–bola munosabatlariga taʼsirini aniqlashga boʻlgan ehtiyoj.
- Yosh inqirozlari davrida bolalarning ruhiy holatini yengillashtirish va ularni ijobiy tarzda yoʻnaltirishning muhimligi.
- Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan oila va ayollar salomatligini muhofaza qilish boʻyicha davlat siyosati bilan uygʻunlik.

Demak, onadagi nevrotik holatlar va ularning bola yosh inqirozlari jarayoniga taʼsirini oʻrganish, bu muammoga ilmiy-psixologik yondashuvni ishlab chiqish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Onalardagi nevrotik holatlarning bola psixik rivojlanishiga taʼsiri masalasi koʻplab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilgan. Psixologiya fanida bu masalaga oid turli yondashuvlar mavjud boʻlib, ular bolaning shaxsiy rivojlanishi va emotsional barqarorligi bevosita oilaviy muhit bilan bogʻliqligini koʻrsatadi. Xorij olimlaridan Xek va Xess (1975) oʻz tadqiqotlarida nevrozlarni tezkor diagnostika qilish metodikasini ishlab chiqib, ayollarda uchraydigan ruhiy taranglik va hissiy beqarorlikning bola psixikasiga salbiy taʼsirini taʼkidlaydi. Ularning fikricha, onaning ichki hissiy beqarorligi bolaning ijtimoiylashuv jarayonida qoʻrquv, ishonchsizlik va moslashuv qiyinchiliklariga olib keladi. Varga va Stolin (1989) ota-ona va bola munosabatlarini chuqur oʻrgangan. Ularning tadqiqotlari shuni koʻrsatadiki, onadagi salbiy hissiy munosabatlar bolaning oʻzini qadrlash darajasini pasaytiradi, ijobiy munosabat esa bolaning shaxsiy rivojlanishini ragʻbatlantiradi. G. Ayzenk (1987) shaxsiy xususiyatlarni baholash orqali onalardagi yuqori darajadagi xavotir va agressiya bolaning ruhiy barqarorligiga salbiy taʼsir koʻrsatishini isbotlagan. Unga koʻra, ona shaxsida rigidlik va hissiy beqarorlik kuchayganda bola shaxsida ham tajovuzkorlik va ishonchsizlik shakllanadi. S. Delingerning psixogeometrik testi esa bolalarning shaxsiy xususiyatlari, oilaviy muhitga moslashuv darajasi va ijtimoiy xulq-atvori haqida qimmatli maʼlumot beradi. Bu metod oilaviy iqlimni tahlil qilishda samarali qoʻllaniladi.

Oʻzbekistonlik psixolog olimlarning izlanishlarida ham ushbu muammo keng yoritilgan. Jumladan, V. Karimova (2002) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda oilaviy muhitdagi stress va ziddiyatlarning onalardagi psixik beqarorlikni kuchaytirishi taʼkidlangan. U farzand tarbiyasida ona ruhiy salomatligining muhimligini asoslab bergan. Shuningdek, R. Norqulova (2010) nevrotik holatlarning yosh davrlardagi oʻzgarishlarga taʼsirini oʻrganib, bolaning inqiroz davrlarini qanday kechirishi onaning ruhiy holatiga bevosita bogʻliq ekanini koʻrsatgan. Oʻzbekiston sharoitida oʻtkazilgan izlanishlarda shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, oilaviy nizolar va "uy bekasi sindromi" kabi psixologik holatlar onalarda depressiya va xavotirlanish darajasini oshirishi, bu esa farzand psixik rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatishi qayd etilgan. Adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki:

- onaning ruhiy salomatligi bolaning shaxsiy rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi;
- nevrotik holatlar (xavotir, depressiya, agressiya, rigidlik) bola psixikasida beqarorlikni kuchaytiradi;
- ota-ona va bola munosabatlari sifatining yuqoriligi bola yosh inqirozlarini yengil oʻtkazishga yordam beradi;
- psixoprofilaktika va psixokorrektsion tadbirlarni amalga oshirish ona va bola psixologik farovonligini taʼminlashda muhimdir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kompleks psixodiagnostik metodlar qoʻllanildi. Ularning asosiy maqsadi – onalarda uchraydigan nevrotik xususiyatlarni aniqlash, ota-ona va bola munosabatlarini baholash hamda bolalarning emotsional rivojlanishini tahlil qilishdan iborat boʻldi. Xek va Xessning "Nevrozni ekspress-diagnostika qilish testi" – mazkur metod yordamida ishtirokchilardagi nevrotik belgilarning darajasi tezkor aniqlanib, ruhiy barqarorlik mezonlari baholandi. Bu testning afzalligi shundaki, u qisqa vaqt ichida nerv-psixik zoʻriqish darajasini koʻrsa-

tadi. Varga-Stolin metodikasi – ota-onalarning bolalarga bo'lgan munosabatini o'rganishga yo'naltirilgan. Unda "qabul qilish – rad etish", "hamkorlik – avtoritar nazorat" kabi mezonlar mavjud bo'lib, ular orqali ona va bola o'rtasidagi emotsional munosabatlarning sifati baholandi. Yaxin-Mendeleyevichning "Xavotirlanish va depressiya so'rovnomasi" – ushbu metodika onalardagi tashvishlanish va tushkunlik darajalarini aniqlashda samarali bo'ldi. Ayniqsa, ichki ruhiy taranglik va hissiy beqarorlikning statistik tasvirini olishda yordam berdi. G. Ayzenkning shaxsiy xususiyatlarni baholash metodikasi – xavotir, frustratsiya, agressiya va rigidlik kabi ko'rsatkichlarni o'lchash imkonini berdi. Ushbu metod yordamida onalarning qaysi emotsional reaktsiyalari ustunligi va ular bolalar bilan munosabatlarda qanday namoyon bo'lishi aniqlangan. Proyektiv metodlar: "Daraxt" testi hamda "Oila rasmi" usullari – ular yordamida onalar va bolalarning ichki hissiy dunyosi, moslashuvchanlik darajasi va oilaviy muhit haqidagi tasavvurlari ochib berildi. Psixogeometrik test – bolalarning shaxsiy xususiyatlari, liderlik, empatiya yoki kommunikativlik darajalarini aniqlashda ishlatildi. Metodlarning kombinatsiyalashgan qo'llanishi tadqiqot natijalarini ko'p qirrali tahlil qilish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda jami 334 nafar ona va ularning farzandlari ishtirok etdi. Ushbu keng qamrovli empirik tadqiqot natijalari ona va bola o'rtasidagi munosabatlar tizimida nevrotik holatlar shakllanishining ko'p qirrali mexanizmlarini ochib berdi. Onalardagi nevrotik holatlar Xek–Xess ekspress-testining natijalari shuni ko'rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan onalarning 55 foizida turli darajadagi nevroz yoki unga yuqori moyillik aniqlandi. Bu ko'rsatkich jamiyatda onalarning psixoemotsional barqarorligi yetarli darajada ta'minlanmayotganini anglatadi. Uy bekalari va mehnat faoliyati bilan shug'ullanmaydigan onalarda nevrotik belgilar ko'proq namoyon bo'ldi. Ular orasida o'zini qadrlash darajasining pastligi, ruhiy charchoq, ichki zo'riqish va hayotdan qoniqmaslik yuqori ekani aniqlandi. Ish faoliyati bilan shug'ullanadigan, ijtimoiy faolligi yuqori bo'lgan onalarda esa nevrotik holatlar ancha kamroq qayd etildi. Bu holat ijtimoiy rol va shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarining ruhiy salomatlik uchun qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi.

Ota-ona va bola munosabatlari Varga–Stolin metodikasi orqali aniqlanishicha, 137 nafar ona (41%) o'z farzandini to'liq qabul qilib, unga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lgan. Ularda mehr-muhabbat, qo'llab-quvvatlash, hamdardlik va birgalikda harakat qilish kabi sifatlar ustunlik qildi. Bu guruhdagi bolalarning ijtimoiy adaptatsiya darajasi yuqori, emotsional barqarorligi esa mustahkam bo'lib chiqdi. 97 nafar ona (29%) esa farzandiga nisbatan salbiy munosabat bildirgan. Ularda nazorat va jazolash usullari ustun, empatik qo'llab-quvvatlash esa yetarli darajada emas. Bu esa bolalarda o'zini past baholash, ijtimoiy tortinchoqlik, xavotirchanlik va uyalchanlik kabi alomatlarni kuchaytirdi. Qolgan 100 nafar ona (30%)da ikki ma'noli (ambivalent) munosabatlar kuzatildi. Ular ba'zan farzandini qo'llab-quvvatlagan, ba'zan esa qattiqqo'l va tanqidiy munosabat namoyon qilgan. Bu kabi ziddiyatli aloqalar bolalarda izchil emas, beqaror emotsional holatlarni keltirib chiqardi. Depressiya va xavotirlanish darajalari Yaxin–Mendelevich metodikasi asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilarning 37,7 foizi yuqori darajadagi depressiya holatini namoyon qilgan. Bu ularda hayotdan qoniqmaslik, ruhiy charchoq va motivatsiya pasayishi bilan bog'liq holatlar ekanini ko'rsatdi. Shu bilan birga, 31,2 foiz onalarda yuqori xavotirlanish darajasi aniqlandi.

Xavotirning yuqori bo'lishi ularning farzandiga nisbatan ortiqcha nazorat, ishonchsizlik va "g'ayri real" qo'rquvlar orqali namoyon bo'ldi. Bu esa bolalarning ichki dunyosida xavotirning kuchayishiga, mustaqil qaror qabul qilishdan qochishiga olib keldi. Shaxsiy xususiyatlar (Ayzenk metodikasi) Ayzenk metodikasi natijalariga ko'ra, onalarning kamida uchdan birida xavotir, agressiya va rigidlik darajalari yuqori ekani qayd etildi. Psixologik jihatdan bu holatlar bolalarga quyidagi tarzda ta'sir ko'rsatdi: Xavotirchan onalar farzandlarida ham ortiqcha tashvish va himoya mexanizmlarini shakllantirdi; Agressiv reaksiya ko'rsatgan onalar bolalarda ham tajovuzkorlik va ijtimoiy ziddiyatlarga moyillikni kuchaytirdi; Rigidlik ko'rsatkichi yuqori bo'lgan onalar farzandlariga nisbatan qattiqqo'l, kelishuvsiz va talabchan munosabat namoyon etgan, bu esa bolalarda o'z fikrini erkin bildirish imkoniyatini cheklagan. Bolalardagi xususiyatlar Psixogeometriya testining natijalari bolalarning ichki resurslari va munosabatlariga oid qiziqarli ma'lumotlarni berdi.

Dumaloq shaklni tanlagan bolalarda empatiya, muloqotchanlik va ijtimoiy moslashuvchanlik kuchli bo'lgan. Ular oilada mehr va qo'llab-quvvatlash ko'proq his etilgan muhitda o'sganlar. Uchburchak shaklni tanlagan bolalarda liderlik xislatlari namoyon bo'lgan. Lekin ularning liderligi sog'lom muhitda ijobiy yo'nalish olgan, muammoli muhitda esa agressiya va nazorat istagiga aylangan. "Oila rasmi" testlari bolalarning ichki hissiy munosabatlarini yanada ravshan ko'rsatdi:

- sog'lom muhitda bolalar oilani bir butun, mehrli va uyg'un tasvirlagan;
- ruhiy beqaror muhitda esa ayrim bolalar oila a'zolarini ajratgan, xo'rlanish, emotsional masofa va tartibsizlik belgilarini aks ettirgan.

Olib borilgan tadqiqotning qiyosiy tahlili shundan dalolat berdiki:

- Ona shaxsidagi nevrotik holatlar bolaning psixoemotsional rivojlanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi;
- Xavotir, depressiya va agressiya alomatlari yuqori bo'lgan onalar farzandlarining yosh inqirozlarini og'irroq kechirishi kuzatildi;
- Ruhiy barqarorligi mustahkam bo'lgan onalar farzandlari emotsional jihatdan ham, ijtimoiy moslashuv nuqtai nazaridan ham barqarorlik namoyon etdi;
- Ambivalent munosabatlar esa bolalarda izchillikka ega bo'lmagan, beqaror shaxsiy xislatlarni kuchaytirdi.

Shunday qilib, ushbu tadqiqot natijalari ona va bola o'rtasidagi munosabatlarni chuqur tahlil qilish, ona salomatligini muhofaza qilish va psixokorreksion tadbirlarni yo'lga qo'yish zarurligini yanada ravshanlashtirdi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat berdiki, ona va bola o'rtasidagi psixoemotsional aloqalarda onaning ruhiy holati hal qiluvchi omil hisoblanadi. Nevrotik holatlar – depressiya, xavotirlanish, ichki zo'riqish va agressiya – nafaqat onaning shaxsiy salomatligiga, balki farzandning yosh inqirozlarini kechirish jarayoniga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda kuzatilgan holatlar shuni ko'rsatadiki, onalardagi ichki ruhiy beqarorlik bolalarda turli ko'rinishda namoyon bo'ladi: uyg'oqlikda xavotir, tushunarsiz qo'rquv, ijtimoiy munosabatlarda tortinchoqlik, o'zini past baholash, agressiya yoki izolyatsiya. Bu esa ularning ijtimoiy adaptatsiyasi va shaxsiy rivojlanishiga jiddiy to'siqlar yaratadi. Shu bilan birga, olib borilgan tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati ham katta. U inson ruhiyatining uzviy birligi va oilaviy muhitdagi aloqalarning kuchli ta'sirini yana bir bor tasdiqlab berdi. Bolada kuzatiladigan ko'plab nevrotik alomatlarning ildizi ona shaxsidagi ruhiy beqarorlik bilan bog'liq ekani aniqlandi. Bu holat psixologiya fanining zamonaviy yo'nalishlaridan biri – oilaviy psixologiya va tibbiy psixologiya sohasida yangi tadqiqotlar uchun poydevor yaratadi.

Amaliy jihatdan esa, oilada sog'lom ruhiy muhitni ta'minlash, onalarning psixoemotsional barqarorligini mustahkamlash va ularga muntazam ravishda psixoprofilaktik yordam ko'rsatish juda muhim. Buning uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1) Psixoprofilaktika dasturlari – ona va bola uchun mo'ljallangan guruh mashg'ulotlari, treninglar va psixoedukativ seminarlar orqali nevrotik holatlarning oldini olish.
2) Psixodiagnostika amaliyoti – har bir ona va bola bilan individual ishlash, ularning ruhiy holatini erta aniqlash va zarur yordamni ko'rsatish.
3) Psixokorreksion tadbirlar – stressni boshqarish, emotsional tarbiya va konstruktiv muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan amaliyotlar.
4) Oilaviy maslahatlar – er-xotin munosabatlaridagi ziddiyatlarni bartaraf etish, ota ishtirokini kuchaytirish, bolaga nisbatan umumiy yondashuvni uyg'unlashtirish.
5) Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash – jamoatchilik, ta'lim va tibbiy muassasalarda onalar uchun psixologik xizmatlarni yo'lga qo'yish.

Natijalardan kelib chiqib aytish mumkinki, ona va bola o'rtasidagi sog'lom ruhiy munosabatlar faqat oila uchun emas, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun ham asosiy shart hisoblanadi. Chunki barqaror shaxs – barqaror avlodni, barqaror avlod esa jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydi. Shu tariqa, olib borilgan tadqiqot ilmiy-nazariy jihatdan ham, amaliy-pedagogik va psixokorreksion jihatdan ham yuqori ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida psixologiya va tibbiyot sohalarida kompleks tadqiqotlarni davom ettirish zarurligini ko'rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Melibayeva, R. N., Narmetova, Y. K., Bekmirov, T. R., & Abdumutalibova, M. M. (2023). Oilalarda nevrotik buzilishlar sabablari va ularni bartaraf etish usullari. Scientific Journal of Applied and Medical Sciences, 2(12), 695-699.
2. Бекмиров, Т. Р. (2023). Психологическая травма у детей как фактор невроза. Academic Research in Educational Sciences, 4(TMA Conference), 739-744.
3. Бекмиров, Т. (2021). Психологические особенности неврозов у подростков. Общество и инновации, 2(10/S), 541–547. https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp541-547
4. Бекмиров, Т. Р. (2021). Невроз – заболевание? Что нам нужно знать о нём. Интернаука, 41(217), 77-78.
5. Бекмиров, Т. Р. (2019). Professional pedagogy of higher education as an important factor. Интернаука, (44-2), 61-62.
6. Нурматов, А., & Бекмиров, Т. (2021). Развитие креативности будущего учителя в процессе… (Doctoral dissertation, Тошкент).
7. Bekmirov, T. R. (2020). Psychological features of adaptation and integration of children with developmental…
8. Бекмиров, Т. Р. (2023). Некоторые особенности невроза и профилактика. Academic Research in Educational Sciences, 4(TMA Conference), 878-885.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. №9**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.